Boshqaruvda innovatsiyalarni hisobga olgan holda agrokorxonalarni davlat tomonidan rag'batlantirishning zamonaviy yondashuvlari .....	878
<b>Shaniyazova Zamira</b>	
Практические аспекты применения статистических методов контроля качества на предприятиях.....	883
<b>Усманов Илхом Ачилович, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sishning yangi paradigmalarini shakllantirish: nazariy asoslar va amaliy talqinlar.....	891
<b>Alimova Guzal Abduxakimovna</b>	
Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarining nazariy va metodologik tahlili .....	895
<b>Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'li</b>	
Kutubxonalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes-modellarni ishlab chiqish.....	900
<b>Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li</b>	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha xarajatlarni xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish uslubi-yatini takomillashtirish .....	905
<b>X.A.Raximov</b>	
Kameral soliq tekshiruvda smart texnologiyalarini ma'lumotlarini soliq organlarining ma'lumotlar bazasida shakllanishi.....	910
<b>Ergashev Uyg'un Jabborovich</b>	
Obligatsiya moliya bozori instrumenti sifatida, milliy obligatsiyalar bozori .....	916
<b>Avezov Ibrohim Ilxomovich, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich</b>	
Barqaror rivojlanish doirasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarining yashil texnologiyalar innovatsiyasiga ta'sirini baholash.....	921
<b>Meliqo'zieva Dilrabo Muxitdin qizi</b>	
Yashil iqtisodiyot – barqaror taraqqiyotga olib boruvchi yo'l.....	925
<b>Xalilova Aziza Rustamovna</b>	
Научно-теоретические основы экономической и эколого-экономической эффективности предприятий горнодобывающей промышленности.....	930
<b>Раматов Зафарбек Жуманиязович</b>	
Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	938
<b>D.E.Qarshiev</b>	
Kichik sanoat zonalarida investitsion jozibadorlikni oshirishni investitsion faollikka ta'siri.....	943
<b>Mannapova Shaxnoza Elshodovna</b>	
Mahalla institutining samaradorligi tahlili: so'rovnomaga yondashuvi .....	947
<b>Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li</b>	
Формирование человеческого капитала в условиях демографических изменений: опыт и перспективы для узбекистана.....	955
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
Farmasevtika kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo'nalishlari .....	962
<b>Vaxrombek Bobojonov</b>	
“Hududlarda sug'urtaga bo'lgan talabning ekonometrik tahlili” .....	967
<b>Bekberganova Mohira Ravshonbekovna</b>	
O'zbekiston va xalqaro amaliyotda raqamli marketing vositalaridan foydalanish: muammolar va yechimlar .....	973
<b>Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi</b>	
Условия эксплуатации и экологическая безопасность автотранспортной системы на основе энергосберегающих технологий .....	978
<b>Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна</b>	
O'zbekiston tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanishda xorijiy tajribalarni qo'llash.....	982
<b>Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich</b>	



Buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish yo'llarida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar .....	987
<b>Sattorov Mirjahon</b>	
Особенности маркетинговых стратегий в условиях ограниченных ресурсов и узкой потребительской аудитории .....	991
<b>Дебердиев Анвар</b>	
DEbitorlik va kreditorlik qarzlari auditini rejalashtirish masalalari.....	995
<b>Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Ibragimova Iroda Rashid qizi</b>	
Инвестиционная программа узбекистана по привлечению иностранных инвестиций .....	1000
<b>Камилова Наргиза Абдукажоровна, Бекмуратов Шухрат Даулетмуратович</b>	
Turistik mahsulotni shakllantirishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash.....	1005
<b>Raxmonov Siyovush Turob o'g'li</b>	
Uglerodsiz energiyaga o'tishda o'zbekistonning yashil strategiya yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'siri.....	1011
<b>Nuraliyeva Komila Sanakulovna</b>	



# UGLERODSIZ ENERGIYAGA O'TISHDA O'ZBEKISTONNING YASHIL STRATEGIYA YO'L XARITASINING INTEGRATSIYASI VA TA'SIRI

Nuraliyeva Komila Sanakulovna

International School of Finance Technology and Science  
instituti Menejment kafedrası o'qtuvchisi  
Email: Komilanur20@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining uglerodsiz energetika tizimiga o'tish yo'lidagi strategik rejaları, "yashil strategiya" konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan yo'l xaritasi, va ushbu hujjatning iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy sohalarga ko'rsatgan ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlatning qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tishdagi asosiy yondashuvlari, xorijiy investorlar ishtiroki, qonunchilik islohotlari, va yashil moliyalashtirish mexanizmlarining integratsiyalashuvi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikdagi faoliyati, global iqlim siyosatiga moslashuvi va iqlim neytralligiga erishishdagi istiqbollari baholanadi. Maqola O'zbekistonda yashil energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligini, barqaror rivojlanishga qo'shayotgan hissasini va kelajakdagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** uglerodsiz energiya, yashil strategiya, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, energetika transformatsiyasi, iqlim o'zgarishi, yashil moliyalashtirish, O'zbekiston.

**Abstract:** This article explores Uzbekistan's strategic roadmap for transitioning to a carbon-free energy system through the integration of a national "green strategy." It analyzes the impact of this roadmap on the country's economic, environmental, and social development. The research focuses on the government's approach to renewable energy development, legal reforms, foreign investor involvement, and the implementation of green financing mechanisms. Furthermore, the article evaluates Uzbekistan's collaboration with the international community, alignment with global climate policy, and prospects for achieving climate neutrality. The study aims to assess the effectiveness of ongoing green energy reforms, highlight their role in sustainable development, and identify future strategic priorities.

**Key words:** carbon-free energy, green strategy, renewable energy sources, green economy, sustainable development, energy transformation, climate change, green financing, Uzbekistan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются стратегические планы Республики Узбекистан по переходу к безуглеродной энергетике, а также интеграция разработанной на основе концепции «зелёной стратегии» дорожной карты в различные сферы общественной жизни. В фокусе исследования – подходы государства к развитию возобновляемых источников энергии, участие иностранных инвесторов, законодательные реформы и внедрение механизмов «зелёного финансирования». Также анализируется взаимодействие Узбекистана с международным сообществом в контексте климатической политики и достижение климатической нейтральности. Статья направлена на выявление эффективности реализуемых реформ в области зелёной энергетике, их вклад в устойчивое развитие и определение приоритетных направлений на будущее.

**Ключевые слова:** безуглеродная энергия, зелёная стратегия, возобновляемые источники энергии, зелёная экономика, устойчивое развитие, энергетическая трансформация, изменение климата, зелёное финансирование, Узбекистан.

## KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda global iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning degradatsiyasi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish insoniyat oldiga yangi, dolzarb muammolarni qo'yimoqda. Ayniqsa, sanoatning rivojlanishi va energiyaga bo'lgan talabning ortishi natijasida karbonat ангидрид (CO<sub>2</sub>) va boshqa issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarilishi keskin ko'paydi. Bu esa dunyo mamlakatlarini barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga va uglerodsiz iqtisodiyot sari intilishga majbur qilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi ham global iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini chuqur anglagan holda, barqaror rivojlanishni ta'minlash, energiya xavfsizligini mustahkamlash va ekologik muvozanatni saqlab qolish maqsadida "yashil strategiya"ni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha qator strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekistonning uglerodsiz energiyaga o'tish bo'yicha ishlab chiqilgan "yashil strategiya" yo'l xaritasi, uning turli sohalarga integratsiyasi va ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida milliy modelning ustunliklari va mavjud muammolari yoritiladi. Maqola barqaror energetika tizimini shakllantirishda O'zbekistonning imkoniyatlarini va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Uglerodsiz energiyaga o'tish va yashil strategiya bo'yicha so'nggi yillarda jahon miqyosida keng ko'lamlil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu adabiyotlar, asosan, iqlim o'zgarishining oldini olish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, yashil iqtisodiyotni shakllantirish va yashil moliyalashtirish tizimlarini kengaytirish kabi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Jahon banki (World Bank, 2021), Xalqaro energetika agentligi (IEA, 2022) va BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha paneli (IPCC, 2023) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish, energiya tizimlarining dekarbonizatsiyasi va "net-zero" strategiyalarining ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Jumladan, IEA ta'kidlaganidek, global energiya tizimi 2050 yilgacha to'liq dekarbonizatsiyalangan bo'lishi uchun har yili kamida 4 trillion AQSh dollari miqdorida sarmoya talab etiladi.

O'zbekiston kontekstida bir nechta muhim hujjatlar va tadqiqotlar mavjud. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan yashil rivojlanish strategiyasi" (2022) asosiy milliy dastur bo'lib, unda energetika tizimini modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan. Strategiyada 2030 yilgacha elektr energiyasining kamida 25 foizi qayta tiklanuvchi manbalardan olinishi ko'zda tutilgan.

Ilmiy manbalarda ham ushbu masala turlicha yondashuvlar asosida yoritilgan. Masalan, A. Raxmonov (2023) tomonidan yozilgan "Yashil iqtisodiyot va O'zbekistonda barqaror energetika siyosati" nomli maqolada hukumat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, M. Karimov (2022) o'z tadqiqotida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy samaradorligi va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi.

Shuningdek, xalqaro tajribalarga oid tadqiqotlar – masalan, Germaniyaning "Energiewende" dasturi (Agora Energiewende, 2020) yoki Xitoyning "Green Development Policy" tajribalari – O'zbekiston uchun amaliy va strategik saboqlarni taqdim etadi. Bunday tajribalar asosida milliy strategiyani takomillashtirish imkoniyatlari shakllanadi.

Shu tariqa, mavjud ilmiy adabiyotlar uglerodsiz energetika, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish sohasidagi muhim nazariy va amaliy asoslarni yaratadi. Biroq, O'zbekiston sharoitiga mos modellar, lokal muammolar va mahalliy resurslar salohiyatiga yo'naltirilgan chuqur tadqiqotlar hali ham to'liq shakllanmagan. Bu esa mavzuni yanada keng o'rganish va tahlil qilishni dolzarb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu ilmiy tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining uglerodsiz energiyaga o'tish jarayonida "yashil strategiya" yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'sirini baholash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, solishtirma tahlil, statistik usullar hamda ekspert baholash metodlari tashkil etdi.

Tizimli yondashuv yordamida yashil strategiyaning asosiy komponentlari – huquqiy, institutsional, iqtisodiy va texnologik jihatlari – o'zaro aloqadorlikda o'rganildi. Bu yondashuv O'zbekiston energetika sohasidagi islohotlarni chuqur va har tomonlama baholashga imkon berdi.

O'zbekistonning yashil energetika strategiyasi Xitoy, Germaniya, Qozog'iston kabi mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu esa xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston modelining ustun va zaif tomonlarini aniqlash imkonini berdi.

Milliy statistika ma'lumotlari, Davlat statistika qo'mitasi, Energetika vazirligi va Xalqaro energetika agentligining (IEA) ma'lumotlari asosida energiya ishlab chiqarish, iste'mol, issiqxona gazlari chiqindilari, qayta tiklanuvchi energiya ulushi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Ushbu ko'rsatkichlarning dinamikasi 2017–2024 yillar oralig'ida o'rganildi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning uglerodsiz energiyaga o'tishga doir siyosati so'nggi yillarda bosqichma-bosqich rivojlanib, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanmoqda. Mavjud holatni tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha muhim xulosalar chiqarildi:

2021–2024 yillar oralig'ida O'zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalarining quvvati sezilarli darajada ortdi. Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yil oxiriga kelib qayta tiklanuvchi manbalarning umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi 12,3 foizni tashkil etdi. Bu raqam 2021 yildagi 7,8 foiz bilan solishtirilganda ijobiy dinamikani ko'rsatadi.

Yashil yo'l xaritasining ta'siri faqat energetika emas, balki sanoat, transport, qurilish va qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarda ham sezilmoqda. Misol uchun, elektr transport vositalarining soni so'nggi ikki yilda ikki barobarga oshgan bo'lsa, yangi qurilish loyihalarida energiya tejankor texnologiyalardan foydalanish majburiy me'yor sifatida joriy etilgan.

So'nggi yillarda "yashil obligatsiyalar" (green bonds), xalqaro grantlar va barqaror rivojlanish uchun ajratilayotgan kredit liniyalari orqali moliyaviy oqimlar sezilarli darajada kengaydi. Bu esa uglerodsiz texnologiyalarning jadal joriy etilishiga zamin yaratmoqda. Jumladan, 2023 yilda xalqaro moliyaviy institutlar bilan tuzilgan kelishuvlar asosida umumiy qiymati 2,4 milliard AQSh dollariga teng "yashil" investitsiyalar yo'naltirildi.

O'zbekiston bir qancha xalqaro tashabbuslarda – xususan, Parij kelishuviga qo'shilishi, "Markaziy Osiyo iqlim forumi" doirasidagi faol ishtiroki – orqali global ekologik kun tartibiga mos ravishda milliy strategiyasini shakllantirmoqda. Bu esa mamlakat imidjining yaxshilanishiga va xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda.

Shunga qaramasdan, strategiyaning to'laqonli amalga oshirilishida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan:

- infratuzilmaviy kamchiliklar (masalan, tarmoqlarni qayta jihozlashdagi sekinlik),
- mahalliy mutaxassislarining yetishmasligi,
- huquqiy bazaning ayrim hollarda izchil emasligi,
- aholi va tadbirkorlar orasida ekologik savodxonlik darajasining pastligi.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan SWOT-tahlil O'zbekiston yashil strategiyasining quyidagi xususiyatlarini aniqladi:

- Kuchli tomonlar: davlat siyosatining aniq yo'nalganligi, xalqaro hamkorlik, geografik va tabiiy resurs salohiyati.
- Zaif tomonlar: kadrlar salohiyati, texnologik qaramlik, mahalliy ishlab chiqarishning cheklanganligi.
- Imkoniyatlar: xalqaro moliyalashtirish imkonlari, regional integratsiya, texnologik transfer.
- Tahdidlar: global iqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy xatarlar, iqlim sharoitining o'zgaruvchanligi.

### 1-jadval. O'zbekistonda yashil strategiyaning asosiy yo'nalishlari va ta'siri

Yo'nalishlar	Asosiy tashabbuslar / loyihalar	Amalga oshirish darajasi	Ijoby ta'siri	Muammolar / to'siqlar
<b>Qayta tiklanuvchi energiya</b>	Quyosh, shamol elektr stansiyalari (Nur Navoi, Zarafshon, Jizzax)	O'rta / Yaxshi	Energiya ishlab chiqarishda barqarorlik	Tarmoqqa ulanish muammolari
<b>Yashil transport</b>	Elektr avtobuslar, elektromobillarni subsidiyalash	Boshlang'ich bosqich	CO <sub>2</sub> chiqindilarining kamayishi	Infratuzilma yetishmasligi
<b>Yashil moliyalashtirish</b>	Yashil obligatsiyalar, xalqaro grantlar, barqaror kredit liniyalari	Yaxshi	Investitsiya hajmining oshishi	Mahalliy moliya institutlarining tajribasi kam
<b>Huquqiy va institutsional baza</b>	Yashil strategiya-2030, energetika qonunchiligi	Rivojlanayotgan	Normativ muvofiqlikni ta'minlash	Qonunlarning izchilligi past holatda
<b>Xalqaro hamkorlik</b>	Parij kelishuvi, OPEK+, Iqlim forumlari	Faol	Texnologiya va investitsiya oqimi	Geosiyosiy barqarorlik tahdidlari
<b>Aholining ekologik xabardorligi</b>	Mahalliy kampaniyalar, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot	Kam	Xavf-xatarlar haqida tushuncha shakllanmoqda	Bilim va e'tibor darajasining pastligi



1-jadvalda O'zbekiston Respublikasining yashil strategiya yo'l xaritasi doirasida amalga oshirilayotgan asosiy yo'nalishlar tahlil qilinib, ularning amaldagi holati, ijobiy ta'siri va mavjud muammolari yoritib berilgan.

Birinchi yo'nalish – qayta tiklanuvchi energiya manbalari – strategiyaning eng faollik bilan amalga oshirilayotgan tarkibiy qismi sanaladi. Nur Navoi, Zarafshon, Jizzax kabi yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarining qurilishi bu sohada jadal taraqqiyot mavjudligini ko'rsatadi. Biroq ularni milliy elektr tarmoqlariga to'liq integratsiyalashda infratuzilmaviy to'siqlar mavjud.

Yashil transport yo'nalishi, ya'ni elektromobillar va elektr avtobuslardan foydalanish, hozircha boshlang'ich bosqichda bo'lib, infratuzilma – xususan, zaryadlash shoxobchalari – yetarli darajada rivojlanmagan.


Yashil moliyalashtirish esa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda yaxshi yo'lga qo'yilgan. 2022–2024 yillarda bir qator xalqaro grantlar, yashil obligatsiyalar va kredit liniyalari orqali uglerodsiz texnologiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlari oshgan.

Huquqiy va institutsional baza sohasida Yashil rivojlanish strategiyasi – 2030 kabi hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning izchilligi, ijrosi va mahalliy sharoitga mosligi bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjud.

Xalqaro hamkorlik yo'nalishi juda faol bo'lib, O'zbekistonning Parij kelishuviga qo'shilishi, mintaqaviy va global ekologik forumlardagi ishtiroki natijasida texnologik va investitsion oqimlar kuchaymoqda.

Oxirgi yo'nalish – aholining ekologik xabardorligi – hali zaif hisoblanadi. Chunki ekologik savodxonlik darajasi va yashil texnologiyalar haqidagi tushunchalar aholining keng qatlamlarida hali yetarlicha shakllanmagan.

Umuman olganda, jadval O'zbekistonda yashil strategiyaning turli komponentlari turlicha darajada rivojlanganini, ularning ba'zilarida ijobiy natijalar sezilayotganini, ammo ayrim sohalarda qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi. Bu esa strategiyaning amaliy ta'sirini kuchaytirish uchun tizimli yondashuv va ko'p sektorli islohotlarni talab qiladi.



1-rasm. "O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya ulushi va yashil investitsiyalar hajmining yillik dinamikasi (2021–2024)"

Yuqoridagi 1-rasmda 2021-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davr mobaynida O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi va yashil investitsiyalar hajmi o'rtasidagi dinamik o'zgarishlar tasvirlangan.

Chap o'q bo'yicha qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%) ko'rsatilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021-yilda 7,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 12,3 foizga yetgan. Bu esa davlat tomonidan amalga oshirilayotgan "Yashil strategiya" doirasidagi infratuzilma loyihalari, texnologik yangilanish va investorlar uchun yaratilayotgan imtiyozlarning amaliy natijasidir.

O'ng o'q esa yashil investitsiyalar hajmini (mlrd. AQSh dollari) ifodalaydi. Bu ko'rsatkich 2021-yildagi 0,9 milliard dollardan 2024-yilda 2,4 milliard dollarga oshgan. Bu jarayonda xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, Osiyo Taraqqiyot Banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) hamda Iqlim bo'yicha xalqaro jamg'armalar (Green Climate Fund) bilan hamkorlik muhim rol o'ynagan.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, qayta tiklanuvchi energiyalarning ulushi va yashil investitsiyalar o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, bu O'zbekistonning uglerodsiz iqtisodiyot sari yo'naltirilgan strategik siyosatining samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Yuqoridagi natijalar O'zbekistonning yashil energetika va uglerodsiz iqtisodiyot sari yo'nalgan sa'y-harakatlari barqaror rivojlanish strategiyasiga asoslanganligini, ammo ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun chuqur institutsional islohotlar va innovatsion yondashuvlar zarurligini ko'rsatadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasining uglerodsiz energiyaga o'tish bo'yicha yashil strategiyasi umumiy rivojlanish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, barqaror iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlikka erishishning asosiy omillaridan biri sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, yashil moliyalashtirish mexanizmlari va xalqaro hamkorlik yo'nalishlarida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, transport, qonunchilik va ijtimoiy ong darajasida hali yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Yashil strategiya yo'l xaritasi bugungi kunda O'zbekistonning milliy energetika siyosatini uglerodsiz va ekologik toza manbalarga yo'naltirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo ushbu xaritaning samaradorligini maksimal darajada ta'minlash uchun sektoral integratsiya va institutsional muvofiqlashtirish darajasi yanada mustahkamlanishi zarur.

Quyidagi takliflar mazkur yo'nalishda amaliy ahamiyatga ega:

1. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini hududlar bo'yicha diversifikatsiya qilish  
Energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini yirik shaharlardan tashqarida ham rivojlantirish, ayniqsa, shamol va quyosh potentsiali yuqori bo'lgan viloyatlarda strategik loyihalarni amalga oshirish zarur.
  2. Yashil transportni rivojlantirish uchun infratuzilma yaratish  
Elektr zaryadlash stansiyalari, texnik xizmat ko'rsatish markazlari va soliq imtiyozlari asosida elektromobillar bozorini rag'batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.
  3. Yashil moliyalashtirish bo'yicha milliy mexanizmlarni kuchaytirish  
Mahalliy banklar va moliyaviy institutlar ishtirokida "yashil kredit liniyalari" va davlat kafolati asosida innovatsion energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy vositalar yaratish zarur.
  4. Qonunchilik bazasini takomillashtirish va monitoring tizimini joriy etish  
Yashil strategiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni izchil yangilash, ularning ijrosini monitoring qiluvchi mustaqil institutlar faoliyatini yo'lga qo'yish taklif etiladi.
  5. Aholi va biznes subyektlari o'rtasida ekologik savodxonlikni oshirish  
Ta'lim tizimida barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga oid mavzularni keng joriy etish, ommaviy axborot vositalarida ekologik kampaniyalarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.
  6. Xalqaro texnologik transfer va investitsiyalarni faol jalb qilish  
Xorijiy kompaniyalar bilan davlat-xususiy sheriklik asosida yuqori texnologiyali yashil loyihalarni amalga oshirishda qulay investitsion muhit yaratish dolzarb vazifadir.
- Yuqoridagi takliflar O'zbekistonda uglerodsiz energiyaga o'tish jarayonini tizimli tarzda jadallashtirish va yashil strategiyaning barqaror ta'sirini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori, 2023-yil 15-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2024). Energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini oshirish bo'yicha milliy dastur. Toshkent: Energetika vazirligi matbuot xizmati.
3. Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of Uzbekistan. (2024). Uzbekistan's Green Transition Strategy 2023-2030. Official Report.
4. Asian Development Bank (ADB). (2023). Green Recovery and Renewable Energy Development in Central Asia. Manila: ADB Publications.
5. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2022). Renewable Energy Market Analysis: Central Asia. Abu Dhabi.
6. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Decarbonization Pathways and Green Growth in Uzbekistan. Tashkent: UNDP Uzbekistan.
7. World Bank. (2023). Uzbekistan Energy Transition and Climate Resilience Report. Washington, DC.
8. International Energy Agency (IEA). (2022). Uzbekistan 2022 Energy Profile. Paris: IEA Publications.
9. Fayziev, S., & Karimova, G. (2022). "O'zbekistonda yashil energetikaning rivojlanish istiqbollari." *Ilm va taraqqiyot*, 3(9), 45-51.
10. Rasulov, B. (2023). "Yashil moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yo'llari." *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 1(11), 78-83.
11. Statistika agentligi huzuridagi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston energetika sektori bo'yicha statistik to'plam. Toshkent.
12. OECD. (2023). Environmental Performance Review of Uzbekistan. Paris: OECD Publishing.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>